

SUG'URTA BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Norqulova Shahzoda Ikromovna

Termiz davlat universiteti,

Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda sug'urta bozorining shakllanishi va rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Unda bozorning hozirgi holati, ishtirokchilari, davlat tomonidan tartibga solish usullari, sug'urta bozorini xorij tajribasi bilan taqqoslab o'rganish hamda sug'urta xizmatlarining kengayish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mavjud qonunchilik bazasi, statistika ma'lumotlari va ilg'or xalqaro tajribalar asosida tahliliy yondashuv qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: Sug'urta bozori, rivojlanish, moliyaviy barqarorlik, hayot sug'urtasi, tibbiy sug'urta, mulk sug'urtasi, raqobat, nazorat, prudensial normalar, raqamlashtirish, innovatsiyalar, konsentratsiya, talab, xorijiy tajriba, onlayn platform, Insurtech, ijtimoiy sug'urta, ekologik sug'urta, risklar, integratsiya, investitsiya, islohotlar, strategiya, modernizatsiya.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СТРАХОВОГО РЫНКА

Норкулова Шахзода Икромовна

Термезский государственный университет, студентка 2 курса направления
«Финансы и финансовые технологии»

Аннотация: В данной статье рассматриваются формирование и развитие страхового рынка в Узбекистане. В ней анализируется текущее состояние рынка, его участники, методы регулирования со стороны государства, сравнение страхового рынка с иностранным опытом, а также

возможности расширения страховых услуг. В исследовании используется аналитический подход на основе существующей законодательной базы, статистических данных и передового международного опыта.

Ключевые слова: Страховой рынок, развитие, финансовая стабильность, страхование жизни, медицинское страхование, страхование имущества, конкуренция, контроль, пруденциальные нормы, цифровизация, инновации, концентрация, спрос, иностранный опыт, онлайн-платформа, Insurtech, социальное страхование, экологическое страхование, риски, интеграция, инвестиции, реформы, стратегия, модернизация.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE INSURANCE MARKET

Norkulova Shakhzoda Ikromovna

Termez State University, 2nd-year student of the "Finance and Financial Technologies" program

Abstract: This article discusses the formation and development of the insurance market in Uzbekistan. It examines the current state of the market, its participants, the regulatory methods employed by the government, a comparative study of the insurance market with foreign experiences, and analyzes the opportunities for the expansion of insurance services. The research employs an analytical approach based on the existing legislative framework, statistical data, and advanced international practices.

Keywords: Insurance market, development, financial stability, life insurance, health insurance, property insurance, competition, regulation, prudential norms, digitization, innovations, concentration, demand, foreign experience, online platform, Insurtech, social insurance, environmental insurance, risks, integration, investment, reforms, strategy, modernization.

Sugʻurta bozori — bu sugʻurta kompaniyalari, sugʻurtalovchilar va sugʻurtalanuvchilar oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi boʻlib, unda sugʻurta xizmatlari taklif qilinadi va talab qilinadi. Sugʻurta bozori moliyaviy sektorning muhim qismlaridan biri hisoblanib, xavflarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni taʼminlash va investitsiyalarni ragʻbatlantirish kabi asosiy funksiyalarni bajaradi. Uning asosiy maqsadi - kutilmagan moliyaviy yoʻqotishlarning oldini olish va zararlarni qoplashga yordam berishdir.

Barchamizga maʼlumki, har qanday bozorda sotuvchi va xaridor boʻladi hamda ular oʻrtasida tegishli tovarlar (xizmatlar) ayirboshlanadi. Xuddi shunday, sugʻurta bozorida ham sotuvchi (sugʻurtalovchi) va xaridor (potentsial sugʻurtalanuvchi) ishtirok etadi. Bu erda potentsial sugʻurtalanuvchi tushunchasini qanday izohlash mumkin, degan oʻrinli savol tugʻilishi mumkin. Gap shundaki, basharti, potentsial sugʻurtalanuvchini toʻgʻridan toʻgʻri sugʻurtalanuvchi, deb atasak katta xatoga yoʻl qoʻygan boʻlamiz. Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq, sugʻurta kompaniyalari bilan bevosita shartnoma tuzgan, fuqarolik salohiyatiga ega boʻlgan yuridik va jismoniy shaxslarga sugʻurtalanuvchilar deyiladi. Aksincha, sugʻurta “mahsulotini” sotib olishga ehtiyoji bor, ammo hali sugʻurtalovchilar bilan tegishli sugʻurta munosabatlariga kirishmagan shaxslar potentsial sugʻurtalanuvchilar deb ataladi. Endi, sugʻurtalovchilar haqida gapiradigan boʻlsak, sugʻurtalovchi - bu mamlakat xududida sugʻurta faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan hamda sugʻurtalash oʻzi uchun asosiy faoliyat turi hisoblangan yuridik shaxslardir. Koʻrinib turibdiki, sugʻurta kompaniyasi tegishli faoliyat yuritishi uchun vakolatli davlat organining litsenziyasiga ega boʻlishi va sugʻurtaga bogʻliq boʻlmagan operatsiyalar bilan shugʻullanmasligi zarur.

Sugʻurta bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy segmenti hisoblanadi, ayni vaqtda, bevosita uning ravnaqiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda qayd etish lozimki, sugʻurta faoliyati oʻziga xos tarzda shakllangan va keng qoʻllanilayotgan ijtimoiy hodisa boʻlib, barqarorlik omili sanaladi. Mamlakat sugʻurta bozori rivojini prognozlash oʻz navbatida, biznes sub'ektlari

va aholi manfaatlari himoyasini kafolatli darajada ta'minlash instituti sifatida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi. Bunday nisbat buzilgan holatda bu kompaniyalarga nisbatan davlat iqtisodiy sanksiyalar qo'llaydi va ularning ishtirokini ushbu bozorda chegaralab qo'yadi.

Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning elementlaridan biri bozordagi raqobatni sun'iy ravishda yo'qotish, ya'ni boshqa qatnashchilarni bu bozorga kirishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ikki yoki undan ortiq kompaniyalarning o'zaro til biriktirishi va o'zaro kelishuvlariga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir. Raqobatning nosog'lom usul va vositalari bo'lmish tariflarni sun'iy ravishda oshirish yoki pasaytirish, sug'urtalanuvchilarga sug'urtaning ma'lum bir turi to'g'risida yoki ushbu turni amalga oshiruvchi o'z raqobatchilari to'g'risida yolg'on ma'lumotlar berib, ularni arosatga qo'yish mumkin bo'lmagan holatlardir. Bunday holatlarga nisbatan davlat qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar vositasida doimiy qarshi choralar ko'rib borishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ilmiy ishda O'zbekiston sug'urta bozorining hozirgi holati, rivojlanish bosqichlari, xorijiy tajriba bilan taqqoslanishi va mavjud muammolarni tahlil qilish asosiy maqsad qilib belgilandi. Mazkur maqsadlarga erishish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar tanlandi:

1. Tahliliy metod (Analitik yondashuv)

Ushbu usul yordamida sug'urta bozorining tarkibi, faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalar soni, xizmat turlari, raqamli texnologiyalar joriy etilishi, aholi sug'urtaga bo'lgan munosabati va soha iqtisodiyotiga ta'siri chuqur o'rganildi. 2023–2024-yillarga oid statistik ma'lumotlar asosida O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalari soni va ular o'rtasidagi raqobat darajasi tahlil qilindi.

2. Taqqoslash (komparativ) usuli

O'zbekiston sug'urta bozori AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya sug'urta tizimlari bilan taqqoslandi. Ushbu usul xorijiy mamlakatlarning ilg'or

tajribalarini aniqlashga, ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini baholashga yordam berdi. Taqqoslash orqali, ayniqsa, raqamlashtirish, tartibga solish va xizmat sifati bo‘yicha farqlar ko‘rsatib o‘tildi.

3. Tizimli yondashuv (kompleks tahlil)

Sug‘urta bozorining barcha ishtirokchilari – davlat, kompaniyalar, iste’molchilar, nazorat organlari va ularning o‘zaro aloqasi tizimli asosda ko‘rib chiqildi. Bu yondashuv yordamida bozorning ichki dinamikasi, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash mexanizmlari va islohotlarning ta’siri tahlil qilindi.

4. Empirik metod (real faktlarga asoslangan yondashuv)

So‘nggi yillarda sug‘urta bozorida sodir bo‘lgan real o‘zgarishlar, islohotlar va ularning natijalari o‘rganildi. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida sug‘urta sohasini raqamlashtirish, axborot xavfsizligini oshirish va fuqarolar sug‘urta madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan choralar empirik asosda tahlil qilindi.

5. Me‘yoriy-huquqiy tahlil


Sug‘urta sohasini tartibga soluvchi qonunlar, me‘yoriy hujjatlar, xalqaro andozalar va ularning O‘zbekiston amaliyotiga tatbiq etilishi o‘rganildi. Bu usul orqali milliy qonunchilikda mavjud bo‘shliqlar va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan¹. Prezident tomonidan imzolangan ushbu qonun 2021-yil 15-iyunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan, 2021-yil 22-avgustda esa Senat tomonidan ma’qullangan. Qonun 10 ta bob va 72 ta moddadan iborat bo‘lib, 2022-yil 25-fevralda kuchga kirgan. Ushbu qonun O‘zbekiston sug‘urta bozorining islohoti va rivojlanishiga qaratilgan asosiy huquqiy hujjat bo‘lib, sug‘urta bozorida ishonchli va barqaror tizim yaratish, raqobatni kuchaytirish hamda xalqaro standartlarga moslashishni maqsad qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasining 23.11.2021-yildagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni.

"Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun O'zbekiston sug'urta bozorining islohoti va modernizatsiyasini ta'minlashga yo'naltirilgan. Shuningdek, ushbu qonun, sug'urta kompaniyalari faoliyatini tartibga solish, bozorda sog'lom raqobatni yaratish, xalqaro standartlarga moslashish va aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Qonun, shu bilan birga, sug'urta bozorining barqaror ishlashini ta'minlash va iqtisodiyotning boshqa sektorlariga ta'sirini kuchaytirish uchun zaruriy huquqiy asoslarni yaratadi.

Quyida keltirilgan 1-diagrammada 2023-2024-yillardagi sug'urta tashkilotlari soni keltirilgan. 2023-yilda O'zbekistonda jami 38 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 31 tasi umumiy sug'urta, 7 tasi esa hayot sug'urtasi bilan shug'ullangan. 2024-yilda esa bu ko'rsatkichlar 5 taga kamayib, 28 ta umumiy sug'urta va 5 ta hayot sug'urtasi faoliyatini olib boruvchi kompaniyalar faoliyat yuritgan. Bu o'zgarish, sug'urta bozorida raqobat kuchayishi, bozordagi ehtiyojlar va kompaniyalar faoliyatining moslashuvi natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, umumiy sug'urta bo'yicha faoliyat yuritayotgan kompaniyalar sonining kamayishi, bozorning konsentratsiyalanishini va yirik kompaniyalar kuchining oshishini ko'rsatadi. Hayot sug'urtasi bo'yicha esa, kompaniyalar sonining kamayishi bozorning qisqarishi yoki bu sohada yangi yirik o'yinchilarning paydo bo'lishiga ishora qilishi mumkin.



1-

diagramma. Sug'urta tashkilotlarining soni (2023-2024)².

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2023-yilda O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bo'yicha umumiy tushum 8 059,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 9 770,1 mlrd so'mga yetib, 21,2 foizga o'sdi. Ushbu o'sish mamlakatda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab ortib borayotganidan dalolat beradi. Sug'urta bozorining asosiy qismini umumiy sug'urta tashkilotlari egallagan bo'lib, 2023-yilda ular jami hajmning 96 foizini, 2024-yilda esa 97 foizini tashkil etgan. Bu sohada o'sish sur'ati 22,6 foizni tashkil etdi. Jumladan, umumiy sug'urtaning majburiy turi 2023-yilda 632,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 664,7 mlrd so'mga yetib, 5,1 foizga oshdi. Ixtiyoriy sug'urta hajmi esa 7 104,8 mlrd so'mdan 8 819,0 mlrd so'mga ko'tarilib, 24,1 foizlik sezilarli o'sishni ko'rsatdi.

Boshqa tomondan, hayotni sug'urta qilish sohasi pasayish bilan ajralib turdi. 2023-yilda ushbu sohadagi tushum 322,5 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda u 286,4 mlrd so'mga tushib, 11,2 foizga kamaydi. Biroq majburiy hayot sug'urtasi bo'yicha tushum 35,6 mlrd so'mdan 48,1 mlrd so'mga ko'tarilib, 35,1 foizga o'sdi. Aksincha, ixtiyoriy hayot sug'urtasi hajmi 286,8 mlrd so'mdan 238,2 mlrd so'mga kamayib, 17 foizlik salbiy o'zgarishni ko'rsatdi. Bu esa ushbu

² NAPP.uz. O'zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi.

yoʻnalishda xizmatlar sifati, aholining ishonchi yoki talab darajasida muayyan muammolar borligidan darak beradi.

1-jadval

Koʻrsatkichlar	2023-yil		2024-yil		Oʻzgarish %
	mln.soʻmda	Jamiga nisbatan %da	mln.soʻmda	Jamiga nisbatan %da	
Jami	8 059 726	100%	9 770 107	100%	+21.2%
Umumiy sugʻurta sohasidagi sugʻurta tashkilotlari, shu jumladan,	7 737 236	96%	9 483 746	97%	+22.6%
-majburiy sugʻurta	632 427	8%	664 719	7%	+5.1%
-ixtiyoriy sugʻurta	7 104 809	88%	8 819 027	90%	+24.1%
Hayotni sugʻurta qilish sohasidagi sugʻurta tashkilotlari, shu jumladan,	322 491	4%	286 362	3%	-11.2%
-majburiy sugʻurta	35 645	0%	48 162	0%	+35.1%
-ixtiyoriy sugʻurta	286 846	4%	238 199	2%	-17.0%

1-jadval. Umumiy sugʻurta mukofotlari³

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, sugʻurta bozorining barqaror va samarali faoliyat yuritishi uchun davlat tomonidan aniq tartibga solish, majburiy va ixtiyoriy sugʻurtalarning uygʻunligi, aholiga soliq va huquqiy ragʻbatlar yaratish, shuningdek raqamli texnologiyalarni joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

AQSh, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi ilgʻor mamlakatlar misolida sugʻurta xizmatlarining xilma-xilligi, yuksak raqobat muhiti, mijozlarga qulaylik yaratish, sugʻurta madaniyatining shakllanganligi kuzatiladi. Oʻzbekistonda esa sugʻurta sektori hali rivojlanish bosqichida boʻlib, xorijiy tajribalarni moslashtirib, quyidagi yoʻnalishlarda ishlash zarur:

- sugʻurta xizmatlarini kengaytirish (sogʻliq, ijtimoiy, ekologik),
- aholi oʻrtasida sugʻurta madaniyatini shakllantirish,
- soliq imtiyozlari va davlat kafolatlari orqali ishonchni oshirish,
- raqamli texnologiyalarni joriy qilishni jadallashtirish.

Shunday ekan, xorij tajribasi asosida Oʻzbekiston sugʻurta bozorini isloh qilish, zamonaviylashtirish va aholining faol ishtirokini taʼminlash orqali ushbu sohani iqtisodiyotning barqaror tayanch ustunlaridan biriga aylantirish mumkin.

³ NAPP.uz. Oʻzbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi.

Xulosa qilib aytganda, sugʻurta bozori har qanday rivojlangan yoki rivojlanayotgan iqtisodiyotda xavflarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni taʼminlash, fuqarolar va korxonalarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda muhim vosita sifatida eʼtirof etiladi. Shu bilan birga, sugʻurta bozorining toʻlaqonli shakllanishi va rivojlanishi Oʻzbekistonda moliyaviy xizmatlar sohasini kengaytirish, aholining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va milliy iqtisodiyotning xavfsizligini taʼminlashda asosiy omillardan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasining 23.11.2021-yildagi “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonuni.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” PF-60-son Farmoni
3. Qosimov. U. Oʻzbekistonda sugʻurta bozorining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari. Oʻquv qoʻllanma. Oʻzbekiston moliya institute. Toshkent. 2021.
4. Sharapova M. Iqtisodiy islohotlar sharoitida Oʻzbekiston Respublikasida sugʻurta bozorini rivojlantirish yoʻllari. Science and Education/№3. 2022.
5. Shonov. S. Sugʻurta tizimi va uning iqtisodiyotdagi roli. Oʻquv kitobi. Oʻzbekiston iqtisodiyot nashriyoti, Toshkent. 2021
6. World Insurance Report. Global trends in the insurance market. Hisobot, World Economic Forum, Geneva, 2022.
7. Kucharov, M. Oʻzbekiston sugʻurta bozorining 2016–2023-yillar davomidagi rivojlanish tendensiyalari. Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 11–13. DOI: 10.55439/INS/vol1_iss7/110
8. <https://lex.uz>
9. <https://insurance.uz>
10. <https://www.natlib.uz>).